OILAVIY TADBIRKORLIK – KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI

Djurayeva Nasiba Rustamovna
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Buxoro viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21269019

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Oilaviy tadbirkorlikning oila daromadini barqarorlashtirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashdagi roli tahlil qilingan. Davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati, mahallabay ishlash mexanizmi va tegishli institutsional islohotlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maqola yakunida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, kambag'allikni qisqartirish, bandlik, «Temir daftar», mahallabay ishlash, hokim yordamchisi, ijtimoiy himoya, kichik biznes.

Аннотация. В данной статье с теоретической и практической точки зрения освещена роль и значение семейного предпринимательства в сокращении бедности. Проанализирована роль семейного предпринимательства в стабилизации семейных доходов, обеспечении занятости и укреплении социального равенства. Раскрыта сущность государственной политики поддержки семейного предпринимательства, механизма подомовой работы в махаллях и соответствующих институциональных реформ. В заключение статьи разработаны научно обоснованные предложения по повышению эффективности сокращения бедности посредством дальнейшего развития семейного предпринимательства.
Ключевые слова: семейное предпринимательство, сокращение бедности, занятость, «Железная тетрадь», подомовая работа, помощник хокима, социальная защита, малый бизнес.

Abstract. This article examines, from both theoretical and practical perspectives, the role and significance of family entrepreneurship in reducing poverty. The role of family entrepreneurship in stabilizing household income, ensuring employment, and strengthening social equity is analyzed. The essence of state policy supporting family entrepreneurship, the mahalla-based household survey mechanism, and related institutional reforms are revealed. The article concludes with scientifically grounded proposals for enhancing the effectiveness of poverty reduction through the further development of family entrepreneurship.
Keywords: family entrepreneurship, poverty reduction, employment, «Iron Notebook», mahalla-based approach, hokim's assistant, social protection, small business.

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish har qanday davlat ijtimoiy siyosatining markazida turadigan, aholi farovonligini belgilovchi muhim yo'nalish hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu masalaga davlat siyosati darajasida yondashilib, kambag'allikni tugatishning nafaqat ijtimoiy yordam, balki aholini tadbirkorlikka, xususan, oilaviy tadbirkorlikka jalb qilish orqali hal etish strategiyasi shakllantirilgani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, kambag'allikni kamaytirish faqat oylik va nafaqa miqdorini oshirish yoki yoppasiga kredit ajratishdan iborat bo'lmasligi, balki, avvalambor, aholini kasb-hunarga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish va odamlarda tadbirkorlik ruhini uyg'otish orqali amalga oshirilishi lozim [12]. Ushbu qarash mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashning tubdan yangi, faol modeliga asos bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-504-son qarori bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari belgilab berildi [1]. Shu bilan

bir qatorda, 2021-yil 3-dekabrdagi Farmon asosida har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimi ta'sis etilib, mahallabay ishlash tizimining institutsional negizi yaratildi [2].

2023-yil 12-iyundagi PF-93-son Farmon bilan esa kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish mexanizmlari mustahkamlandi, tadbirkorlarning yangi ish o'rinlari yaratishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etildi [3]. Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali kichik tadbirkorlik subyektlarining o'nlab minglab loyihalariga trillionlab so'm miqdorida imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilib kelinmoqda [4]. Ushbu me'yoriy-huquqiy baza, bir tomondan, tadbirkorlikni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, aynan ehtiyojmand oilalarni «Temir daftar» tizimi orqali aniqlab, ularni maqsadli tarzda bandlikka, jumladan, oilaviy tadbirkorlikka jalb qilish imkonini bermoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, oilaviy tadbirkorlik nafaqat bitta oila a'zosining, balki butun oilaning barqaror va doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlaydi, natijada kambag'allikning avloddan-avlodga o'tish ehtimoli kamayadi. Ayni paytda, bu yo'nalishning amaliy samaradorligini mintaqaviy kesimda, real statistik ma'lumotlar asosida baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Buxoro viloyati misolida oilaviy tadbirkorlikning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni, «Temir daftar» tizimining natijalari va hududlar kesimida kambag'allik darajasining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi – oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning real natijalarini statistik ma'lumotlar asosida baholash va ularni yanada takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik tushunchasi iqtisodiy fanda uzoq tarixga ega bo'lib, turli davr olimlari tomonidan har xil talqin etilgan. Jumladan, A.Smit tadbirkorni shaxsiy foyda olish maqsadida tavakkalchilik asosida tijorat g'oyasini amalga oshiruvchi mulkdor sifatida ta'riflagan bo'lsa, Y.Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi, innovatsion faoliyat turi sifatida talqin qilgan [9]. Ushbu nazariy yondashuvlar oilaviy tadbirkorlikni tahlil qilishda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki oilaviy tadbirkorlik ham, mohiyatan, oila a'zolarining birgalikdagi resurs va mehnatini safarbar etuvchi kichik tavakkalchilik faoliyati hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari keng yoritilgan bo'lib, mustaqillik yillaridan buyon qabul qilingan qonun, farmon va qarorlarning tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani ta'kidlanadi [9; 10]. Ayni paytda, kambag'allikni davlat siyosati darajasida baholashga bag'ishlangan tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirishning asosiy y'oli sifatida aholini kasb-hunarga o'qitish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ko'rsatib o'tiladi, shu bilan birga mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish zarurligi alohida qayd etiladi [11]. Ijtimoiy ish sohasidagi tadqiqotlarda esa oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya choralarining tarixiy shakllanishi, jumladan, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari tahlil qilinib, ijtimoiy yordam bilan tadbirkorlikka jalb qilish choralarining uyg'unlashtirilishi zamonaviy yondashuvning muhim jihati sifatida baholanadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2020-2025 yillar (2025-yil 1-yanvar holatiga) davrini qamrab oluvchi rasmiy statistik va idoraviy ma'lumotlardan foydalanildi. Asosiy ma'lumot manbalari sifatida Buxoro viloyati mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi [6], Buxoro viloyat hokimligi [7] hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari [5] xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: statistik tahlil usuli – «Temir daftar» ma'lumotlari va bandlik ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash uchun; qiyosiy tahlil usuli; jadval va grafik tahlil usuli; monografik va mantiqiy umumlashtirish usuli.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-2024 yillar davomida bir necha bosqichda mahallabay o'tkazilgan xatlovlar natijasida Buxoro viloyatida jami 73 569 nafar ehtiyojmand oila aniqlanib, ularning a'zolari «Temir daftar» reestriga kiritildi. Shulardan 50 883 nafari mehnatga layoqatli, biroq ishsiz fuqarolar hisoblangan (1-jadval).

Ko'rsatkich	Qiymati
2020-2024 yillarda mahallabay xatlov asosida aniqlangan ehtiyojmand oilalar («Temir daftar»)	73 569 oila
Shulardan mehnatga layoqatli ishsizlar soni	50 883 nafar
2025-yil 1-yanvar holatiga ishga joylashtirilgan fuqarolar	50 731 nafar
Bandlik ta'minlangani sababli «Temir daftar»dan chiqarilgan fuqarolar	281 859 nafar


1-jadval. «Temir daftar» tizimining umumiy holati (Buxoro viloyati, 2020-2024 yy.) [6]

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2025-yil 1-yanvar holatiga ehtiyojmand oilalardagi 50 731 nafar mehnatga layoqatli fuqaro ish bilan ta'minlandi, ya'ni «Temir daftar»ga kiritilgan ishsizlarning amalda barchasiga yaqini (deyarli 99,7 foizi) bandlikka jalb qilindi. Bu ko'rsatkich mahallabay ishlash tizimining amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Bandlikni ta'minlash yo'nalishlari kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, eng katta ulush o'zini o'zi band qilish yo'nalishiga to'g'ri kelib, u umumiy bandlikning 51,8 foizini, ya'ni 26 267 nafarni tashkil etadi (2-jadval). Bu, birinchi navbatda, aholining tomorqa xo'jaligi, chorvachilik va uy sharoitida amalga oshiriladigan kichik ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgani bilan izohlanadi.

Bandlikni ta'minlash yo'nalishi	Fuqarolar soni, nafar	Ulushi, %
O'zini o'zi band qilish	26 267	51,8
O'z ishida tiklanganlar, vakant o'rin va mavjud korxonalarga joylashtirish	4 263	8,4
Jamoat ishlariga jalb etish	3 147	6,2
Agrosanoat loyihalariga jalb etish	3 139	6,2
Takroriy ekin ekish	1 776	3,5
Oilaviy tadbirkorlik	1 523	3,0
Investitsiya loyihalari	566	1,1
Qurilish ob'ektlarida bandlik	283	0,6
Hunarmandchilik	208	0,4
Kooperatsiya asosida yer ajratish	71	0,1

2-jadval. Ehtiyojmand oilalardagi fuqarolarning bandlik yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti (2025-yil 1-yanvar holatiga) [6]



1-rasm. Bandlik yo'nalishlari bo'yicha fuqarolar taqsimoti, nafar hisobida [6] asosida muallif tomonidan tuzildi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, oilaviy tadbirkorlik yo'nalishi 1 523 nafarni, ya'ni umumiy bandlikning atigi 3,0 foizini qamrab olgan bo'lib, o'n yo'nalish orasida beshinchi o'rinda turadi. Bir qarashda bu ko'rsatkich unchalik katta bo'lib ko'rinmasligi mumkin, biroq uning sifat jihatidan ahamiyati miqdoridan yuqori baholanishi lozim: farqli o'laroq, masalan, jamoat ishlari yoki qurilish ob'ektlaridagi vaqtinchalik bandlikdan, oilaviy tadbirkorlik doimiy, barqaror daromad manbai yaratib, ko'pincha bitta emas, balki oilaning bir nechta a'zosini bir vaqtning o'zida bandlikka jalb qiladi. Shu bois oilaviy tadbirkorlikning haqiqiy ijtimoiy samarasi rasmiy statistikada ko'rsatilgan raqamdan kattaroq bo'lishi tabiiy.

Bu xulosani viloyat miqyosidagi kengroq ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Xususan, mahallalarda hokim yordamchilari faoliyati natijasida 2024-yilda Buxoro viloyatida 16,0 mingga yaqin fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi, 4,4 mingta yuridik va 7,8 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi [7]. Bundan tashqari, ijara asosida yer ajratish hisobidan 15 479 nafar, hunarmandchilikka esa 4 454 nafar fuqaro jalb etildi [7]. Ko'rinib turibdiki, «Temir daftar»dagi bevosita bandlik yo'nalishlari sifatida qayd etilgan oilaviy tadbirkorlik (1 523 nafar) va hunarmandchilik (208 nafar) ko'rsatkichlaridan tashqari, tadbirkorlik ruhini shakllantirishga qaratilgan o'quv va ro'yxatga olish tadbirlari ancha kengroq auditoriyani qamrab olgan – bu esa kelgusi yillarda bandlik statistikasida oilaviy tadbirkorlik ulushining yanada oshishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Alohida ta'kidlash joizki, bandlikka jalb qilingan barcha yo'nalishlar bo'yicha nafaqat faol tadbirkorlik choralari, balki moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi ham parallel ravishda ishlab turibdi. Jumladan, Prezident farmonlari asosida bayramlar arafasida ajratiladigan bir martalik moddiy yordamlar, kambag'al oilalarning 16 yoshgacha bo'lgan farzandlariga ko'rsatiladigan moddiy ko'mak hamda «Sahovat va ko'mak» jamg'armasi orqali amalga oshiriladigan qo'llab-quvvatlash choralari ehtiyojmand oilalar uchun ijtimoiy xavfsizlik yostig'chasini yaratadi [7]. Bunday «faol tadbirkorlik + passiv ijtimoiy himoya» uyg'unligi kambag'allikka qarshi kurashning eng barqaror modeli sifatida baholanishi mumkin: birinchisi oilani doimiy daromad manbai bilan ta'minlasa, ikkinchisi tadbirkorlik hali barqaror natija bermagan davrda oilani ijtimoiy tanazzuldan himoya qiladi.

Ko'rilgan chora-tadbirlarning yakuniy natijasi sifatida, kambag'al oilalardagi mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlangani natijasida jami 281 859 nafar fuqaro tuman va shahar Xalq deputatlari kengashlari qarorlari asosida «Temir daftar» ro'yxatidan chiqarildi [6]. Bu ko'rsatkich mahallabay ishlash tizimining kambag'allikni real qisqartirishdagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosatining ajralmas va strategik jihatdan muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. «Temir daftar» tizimi, mahallabay ishlash mexanizmi va hokim yordamchilari instituti orqali ehtiyojmand oilalardagi mehnatga

layoqatli ishsiz fuqarolarning aksariyati bandlik bilan ta'minlandi, natijada ularning katta qismi «Temir daftar» ro'yxatidan chiqarildi. Shu bilan birga, tahlil oilaviy tadbirkorlikning bevosita ulushi hozircha o'zini o'zi band qilish yo'nalishidan ancha past ekanini, ammo uning sifat jihatidan – barqarorlik va oilaviy daromad ta'sirining kengligi nuqtai nazaridan – yuqori salohiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Bundan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchida, «Temir daftar»ga kiritilgan oilalar orasida oilaviy tadbirkorlik yo'nalishida imtiyozli kredit va subsidiyalar ulushini bosqichma-bosqich oshirish, xususan, o'zini o'zi band qilish yo'nalishida faoliyat yurituvchi oilalarni to'liq huquqli oilaviy tadbirkorlik subyektiga aylantirish mexanizmlarini joriy etish.

Ikkinchidan, ijara asosida yer ajratish va kooperatsiya asosidagi oilaviy tadbirkorlik shakllarini, ularning yuqori bandlik samarasini hisobga olgan holda, davlat qo'llab-quvvatlash dasturlarida ustuvor yo'nalish sifatida belgilash.

Uchinchidan, faol bandlik choralari bilan bir qatorda, «Sahovat va ko'mak» jamg'armasi va boshqa moddiy yordam mexanizmlarini saqlab qolish, chunki bu ijtimoiy himoya tizimi tadbirkorlik hali barqaror daromad bermagan davrda oilalarni qo'llab-quvvatlovchi zaruriy «xavfsizlik yostig'i» vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy tadbirkorlik – bu nafaqat bitta bandlik yo'nalishi, balki oilaning iqtisodiy mustaqilligini shakllantiruvchi, kambag'allikning avloddan-avlodga o'tishini to'xtatuvchi strategik vositadir. Uni yanada rivojlantirish O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish borasida erishilgan natijalarni barqarorlashtirish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2021-yil 9-avgustdagi PQ-504-sonli qarori [Elektron resurs].
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2021-yil 3-dekabrdagi Farmoni [Elektron resurs].
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son Farmoni [Elektron resurs].
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar [Elektron resurs].
6. Buxoro viloyati mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi ma'lumotlari. – Buxoro, 2025.
7. Buxoro viloyat hokimligi ma'lumotlari. – Buxoro, 2025.
8. Ibragimov J., Abdusaitova M. O'zbekistonda ijtimoiy ish: oila va bolalarga yo'naltirilgan yondashuvlar // ResearchGate. – 2023.
9. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy jurnali. – 2024.
10. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari // ResearchGate. – 2025.
11. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini baholash – davlat siyosati darajasida // ResearchGate. – 2024.